



O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII – XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK TADQIQOTLAR

¹Davlatov Orziqul Bahodirovich

Tel:+998930040979,

²Turdiyev Sanjar Sobir o'g'li

Tel:+998940054804,

³Jumayev Himoyiddin Shuhrat o'g'li

Tel:+998992923222,

⁴Boboyev Ali O'tkir o'g'li

Tel:+998935100535

^{1,2,3,4}Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460571>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 19th December 2022

KEY WORDS

Mang'it, qo'ng'iroq, ming, Panj, Chust, hind, yahudiy, Dishan.

ABSTRACT

O'rta Osiyo hududlari bo'yicha tarixiy kartalar faqat katta tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan hollardagina yaratilgan. Ushbu maqolada hoziri kun geografiya va tarix fanlarida dolzarb bo'lib kelayotgan Qadimgi O'rta Osiyoning tarixiy geografiya masalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning ilmiy ma'lumotlari tahlil qilingan.

O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy tarixiga tavsif Buxoro taxtiga mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Rahim otaliq o'tirgandan keyin ham (1753) feodal tarqoqlik tugamadi. Xiva xoni o'zini mustaqil deb e'lon qildi. XVIII asr boshtarida o'zbeklarning ming urug' boshliqlari Qo'qon xontigini tashkil etdilar. Shahrisabz, Hisor, Badaxshon hokimlari Buxoro amiriga bo'ysunmay qo'ydilar. Faqat amir Shomurod davrida (1785 - 1800) hokimiyat bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida (1826 - 1860) amirlik hududiga Amudaryo bo'ylari, janubiy-sharqida Surxondaryogacha bo'lgan yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842-yili Qo'qon xonligi ham qisqa muddatda zabt etildi. 1512-yili Xiva xonligiga o'zbeklar xoni Elbarsxon tomonidan asos solingan edi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir, keyinchalik Urganch va Xiva bo'lgan. Buxoro amirligi tomonidan bir necha bor bosib olingan Xiva xonligi XVIII asr o'rtalarida yana mustaqillikni

qo'lga kiritdi. 1763-yilgi taxt uchun davom etgan kurashlardan so'ng o'zbek urug'laridan bo'lgan qo'ng'iroq inoqlari taxtni egalladilar. Muhammad Rahimxon I davrida (1806 - 1825) Xiva xonligi to'la birlashtirildi, qo'shni mayda bekliklar, Orol bo'yi qabilalari qo'shib olindi. Qo'qon xonligiga ming urug'dan chiqqan Shohruxbiy 1710-yili asos solgan bo'lib, Norbo'tabiy davrida (1769 - 1800) Chust, Namangan, Xo'jand bekliklari bo'ysundirildi. Olimxon davrida (1800 - 1809) Toshkent, Chimkent, Sayram bekliklari bosib olindi. Muhammad Alixon (1822 - 1842) 1826-yili xitoylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan Sharqiy Turkiston aholisiga yordam berib, Oqsuv, Koshg'ar, Yorkent va Xo'tan viloyatlarini qo'lga kiritdi. 1842-yili Qo'qonga bostirib kelgan Buxoro amiri Nasrullo Muhammad Alixon va uning qarindoshlarini qatl ettirdi. Shundan keyin Qo'qon xonligida taxt uchun kurashlar boshlandi. 1845 yili taxtga o'tirgan Xudoyorxon ruslar bostirib



kelgandan keyin, ular bilan bitim tuzib, Rossiya vassaliga aylandi. Bunga qarshi Farg'ona 100 vodiysi aholisi qo'zg'olon ko'ltardi. 1876-yili Rossiya imperiyasiharbiylari qo'zg'olonni bostirdilar va bahonada Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib yuborildi.¹

Xonliklarning ma'niuriy-hududiy chegaralari XIX asrga kelib. Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kv. km.ni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'g' qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'aridan, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'gan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari. hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'tob va boshqalar amirlik tasa-rufida edi. Marv va Chorjuy shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lar, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.²

Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog' G'izor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y,

Hisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non, Ro'shon, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon Kalif, Bo'ldalik, Qoboqli va Xorazm beklklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqariigan. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar beklar idora qilgan. Hokim quzurida yuzlab mahalliy ma murlar xizmat qilgan. Manbalar, amiriikda mahalliy ma'muriar shtati 30 ming kishini tashkii etganligidan guvohiik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishganlar. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'qna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'gan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xonlikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism -Ichan qal'a (shahaming ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qafada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842-yilda Dishan qal'a qurilib, devor bilan o'rab olingan. Dishan qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.³

Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz,



Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'iro't kabi bekklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'iro't noibliklari ham bo'Mgan. Bekliklami xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar quzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan. XIX asming birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'Tib turgan. Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'Tnn vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan Farg'ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligi 15 bekklik, ya'ni harbiy okrugga bolingan bolib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga etib kelishlari shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda oziq-ovqat ortilgan 12

ming aravaga ega bo'Tgan 60 mingtacha sipohni yig'a olardi.⁴

Xonliklarning aholisi va iqtisodiy geografiyasi XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilar edi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'lari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilardi. Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'ardan iborat bo'lib ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'libular orasida mang'Tt, saroy, qo'ng'iro't, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabiialari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edilar. Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar. Xiva xonligida aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qolng:iro't, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'i, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari, asosan, Amudaryo tarmoq



yoygan qismda, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rtidan birini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.⁵

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi. Buxoro amirligida aholining aksariyat qismi dehqonchilik chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bu'doy, sholi, jo'xori ekilib, boq va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, teginnonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvoqlik, sovungarlik keng rivojlangan. Amirlikning iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud edi, aholining tunnushi past

darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi. Shuningdek, aholiga solinadigan soliq va jarimalar haddan tashqari ko'p edi. Aholining sotib olish qobiliyati pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Hunarmandlar ozgina daromadga ham qanoat qilardi, ustaxonalarni kengaytirishga mablag' topolmasdi. Qo'qon xonligida 1803-yilda bunyod etilgan Xon va Zarbak, 1819-yildagi Yangiariq kanallari vodiya sug'orish ishlarining unumini ancha oshirdi. Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida o'tkazilgan soliq islohoti, bojxonaning joriy etilishi, oltin pul chiqarilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingan soliqlar xonlik xazinasi, daromadini oshirdi. Xonlikda sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga qaraganda ko'p ish qilingan. Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgan, bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.⁶

References:

1. Aminov O. XVI - XX asrlarda O'rta Osiyoning Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqalari. - T., 1958.
2. Ziyayev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII-XX asr boshlari). - T.: Sharq, 1998.
3. Yo'ldoshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. — T., 1959.
4. Bebitov, M. A., & Mardonov, M. I. O. G. L. (2022). QORAXONIYLAR DAVLATIDA TA'LIM FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 487-491.
5. Abdirasulovich, B. M. (2022). HISTORY OF UZBEK TAKIYAS IN ISTANBUL AND ECONOMIC RELATIONS WITH THE OTTOMAN STATE. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 116-119.
6. Og'Abek Bahridin Ogli Mamayusupov, & Quvonchbek Dilmurod O'G'Li Bozorov (2022). BUYUK IPAK YO'LI-MULOQOT VA HAMKORLIK YO'LI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (1), 115-122. doi: 10.24412/2181-2454-2022-1-115-122